

## AXBOROT-KOMMUNIKATSIYA TEXNOLOGIYALARI YORDAMIDA INGLIZ TILINI O'QITISHNING ZAMONAVIY METODIK ASOSLARI VA SAMARADORLIGI

*Ergashaliyeva Arofat Mo'minjon qizi*

*Namangan Davlat Universiteti*

*Filologiya va tillarni o'qitish: ingliz tili*

*yo'nalishi talabasi*

*Email: arofatergashaliyeva@gmail.com*

### Аннотация

Ushbu maqolada axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining ingliz tilini o'qitish jarayonidagi o'rni va metodik ahamiyati tahlil qilingan. Zamonaviy ta'lim tizimida AKT vositalaridan foydalanish o'quvchi va talabalarning bilim olish jarayonini yanada samarali, interaktiv va qiziqarli tashkil etishga xizmat qilishi yoritilgan. Shuningdek, multimedia vositalari, onlayn platformalar va mobil ilovalarning til ko'nikmalarini rivojlantirishdagi ahamiyati ko'rsatib o'tilgan. Maqolada kommunikativ va interaktiv yondashuvlarning afzalliklari ham bayon etilgan. Bundan tashqari, AKTdan foydalanish davomida talaba uchraydigan ayrim texnik va metodik muammolar ham tahlil qilinib, ularni bartaraf etish yuzasidan turli fikrlar keltirib o'tilgan

**Kirish so'zlar :** Axborot-kommunikatsiya texnologiyalari, ingliz tili, metodika, interaktiv ta'lim, multimedia, onlayn platforma, masofaviy ta'lim, innovatsion texnologiyalar, kommunikativ yondashuv

### Аннотация

В данной статье рассматриваются роль и методическое значение информационно-коммуникационных технологий в процессе обучения английскому языку. Освещается влияние использования средств ИКТ на повышение эффективности, интерактивности и интереса учащихся к обучению. Также показано значение мультимедийных средств, онлайн-платформ и мобильных приложений в развитии языковых навыков. В статье раскрываются преимущества коммуникативного и интерактивного подходов в обучении английскому языку. Кроме того, анализируются некоторые технические и методические проблемы, возникающие при использовании ИКТ в образовательном процессе, а также предлагаются пути их решения.

**Ключевые слова:** Информационно-коммуникационные технологии, английский язык, методика, интерактивное обучение, мультимедиа, онлайн-

платформа, дистанционное обучение, инновационные технологии, коммуникативный подход

### Abstract

This article discusses the role and methodological significance of information and communication technologies in teaching English. It highlights how the use of ICT tools increases the effectiveness, interactivity, and attractiveness of the learning process. The importance of multimedia resources, online platforms, and mobile applications in developing language skills is also emphasized. Furthermore, the article explains the advantages of communicative and interactive approaches in English language teaching. In addition, several technical and methodological challenges related to the use of ICT in education are analyzed, and possible solutions to these problems are suggested.

**Keywords:** Information and communication technologies, English language, methodology, interactive learning, multimedia, online platform, distance education, innovative technologies, communicative approach.

### Kirish

Bugungi globallashtirish davrida axborot-kommunikatsiya texnologiyalari hayotimizning barcha sohalariga, ayniqsa ta'lim sohasiga chuqur kirib bormoqda. Jahon miqyosida chet tillarini o'rganishga bo'lgan ehtiyojning ortishi ingliz tilining xalqaro muloqot vositasi sifatidagi ahamiyatini yanada kuchaytirdi. Shu sababli ingliz tilini samarali va zamonaviy metodlar asosida o'qitish masalasi dolzarb mavzulardan biri hisoblanadi. Hozirgi kunda an'anaviy ta'lim usullari bilan bir qatorda AKTdan foydalanish ham til o'qitish samaradorligini oshirishda muhim omil bo'lib xizmat qilmoqda. Mamlakatimizda ham ta'lim tizimini rivojlantirish va xorijiy tillarni o'qitish sifatini yaxshilashga alohida e'tibor qaratilmoqda. Jumladan, maktab va oliy ta'lim muassasalarida zamonaviy texnik vositalar, interaktiv doskalar, multimedia qurilmalari, kompyuter texnologiyalari hamda internet tarmoqlari bilan ta'minlash ishlari amalga oshirilmoqda. Ingliz tili darslarida elektron darsliklar, audio va video materiallar, mobil ilovalar hamda onlayn platformalardan foydalanish o'quvchilarning til o'rganishga bo'lgan qiziqishini oshiradi va dars jarayonining samaradorligini ta'minlaydi.

### ADABIYOTLAR TAHLILI VA TADQIQOT METODIKASI

Bugungi kunda axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining ta'lim tizimiga kirib kelishi ingliz tilini o'qitish jarayonini yanada samarali tashkil etish imkonini bermoqda. Ayniqsa, zamonaviy pedagogik texnologiyalar asosida tashkil etilgan darslar o'quvchilarning til o'rganishga bo'lgan qiziqishini oshirishda muhim rol o'ynaydi. Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev tomonidan chet tillarini o'qitish tizimini

rivojlantirishga qaratilgan qaror va farmonlar ham xorijiy tillarni zamonaviy texnologiyalar yordamida o'qitishga katta e'tibor qaratilayotganini ko'rsatadi. Shu bilan birga hozirgi davrda ingliz tili o'qituvchisidan nafaqat til bilimiga ega bo'lish, balki innovatsion texnologiyalardan samarali foydalana olish ham talab etiladi. Tadqiqot jarayonida:

-Ilmiylik;

-Mantiqiylik;

-Kuzatish;

-Tahlil va taqqoslash metodlaridan foydalanildi. Ingliz tilini o'qitishda AKT vositalarining samaradorligi turli metodik yondashuvlar asosida o'rganilganda xususan, multimedia vositalari, interaktiv doskalar, elektron darsliklar, mobil ilovalar va onlayn platformalarning o'quvchilarning til ko'nikmalarini rivojlantirishdagi o'rni tahlil qilindi.

Shu bilan bir qatorda ingliz tilini o'qitishda zamonaviy texnologiyalardan foydalanish dars samaradorligini oshiradi. Masalan, boshlang'ich sinflarda ingliz tilini qo'shiqlar, rasmlar va multfilmlar orqali o'rgatish o'quvchilarning mavzuni tezroq tushunishiga yordam beradi. Yuqori sinflarda esa audio va video materiallar, elektron kitoblar hamda onlayn platformalar orqali til ko'nikmalari rivojlantiriladi. Bunday texnologiyalar o'quvchilarning tinglab tushunish, o'qish, yozish va gapirish qobiliyatlarini shakllantirishda muhim ahamiyat kasb etadi.

### MUHOKAMA VA NATIJALAR

Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatdiki, axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanish ingliz tili darslarining samaradorligini sezilarli darajada oshiradi. Zamonaviy texnologiyalar yordamida tashkil etilgan darslarda o'quvchilar faolroq qatnashadi va mavzuni osonroq o'zlashtiradi. Ayniqsa, audio va video materiallardan foydalanish tinglab tushunish hamda talaffuz ko'nikmalarini rivojlantirishda katta ahamiyatga ega. Shu bilan bir qatorda dars jarayonida interaktiv o'yinlardan foydalanish ham yuqori natija beradi. Masalan,

-televizor yoki proyektor orqali qisqa multfilm namoyish etilib, o'quvchilardan voqeani davom ettirish so'raladi. Bu usul o'quvchilarning og'zaki nutqini rivojlantiradi va mustaqil fikrlash qobiliyatini shakllantiradi;

-interaktiv doskalar yordamida grammatik mashqlarni bajarish, yangi so'zlarni o'rganish va matnlar bilan ishlash imkoniyati yaratiladi;

Kompyuter texnologiyalaridan foydalanish yozish ko'nikmalarini rivojlantirishda ham samarali hisoblanadi. O'quvchilar internet orqali xorijiy tengdoshlari bilan muloqot qilish orqali yozma nutq malakasini oshiradilar. Bundan tashqari, mobil ilovalar va onlayn platformalar o'quvchilarning mustaqil ta'lim olish imkoniyatlarini kengaytiradi.

Natijalar shuni ko'rsatadiki, AKT vositalaridan samarali foydalanish o'quvchilarning ingliz tiliga bo'lgan qiziqishini oshiradi, darslarni interaktiv tashkil etishga yordam beradi va ta'lim sifatini yaxshilaydi. Shu sababli, zamonaviy texnologiyalarni ingliz tili darslariga keng joriy etish bugungi kun ta'lim tizimining muhim vazifalaridan biri hisoblanadi.

Bugungi kunda maktablarda interfaol o'yinlar orqali dars o'tish an'anaga aylanib bormoqda. Ma'lumki, darsning turli xil o'yinlar asosida o'tilishi o'quvchilarning imkoniyatlarini namoyish etish, diqqatni jamlash, bilim va ko'nikmalarini oshirish va kuchli bo'lishlarini ta'minlaydi.

O'yin texnologiyasidan foydalanishning asosini o'quvchini faollashtiruvchi va jadallashtiruvchi faoliyat tashkil etadi. Psixologlarning ta'kidlashlaricha, o'yinli faoliyatning psixologik mexanizmlari shaxsning o'zini namoyon qilish, hayotda barqaror o'rnini topish, o'zini o'zi boshqarish, o'z imkoniyatlarini amalga oshirishning fundamental ehtiyojlariga tayanadi. Har qanday o'yin zamirida umumiy qabul qilingan ta'lim prinsiplari, taktikasi yotishi kerak. O'quv o'yinlariga o'quv predmetlari asos qilib olinishi kerak. O'yinlar jarayonida o'quvchi oddiy darsga qaraganda bu mashg'ulotga qiziqroq yondashadi va bemalol faoliyat ko'rsatadi. Ta'kidlash lozimki, o'yin eng avvalo, o'qitishning bir usulidir. O'quvchilar o'yinli darslarga qiziqib qatnashadilar, g'alaba qozonishga intiladilar, o'qituvchi ular orqali o'quvchiga ta'lim-tarbiya ham beradi. O'quvchi inglizcha o'yin o'ynab, gapira olarkanman, tinglab tushuna olarkanman, yoza olarkanman, deb ishonadi, qiziqadi.

Biz bilamizki, hozirgi ta'lim jarayonida o'quvchi sub'ekt bo'lishi lozim. Bunda ko'proq interfaol metodlarga e'tibor qaratish ta'lim samaradorligini oshiradi. Ingliz tili darslariga qo'yilgan eng muhim talablardan biri talabalarni mustaqil fikrlashga o'rgatishdir. Bugungi kunda ingliz tili o'qituvchilari Amerika Qo'shma Shtatlari, Angliya pedagoglari tajribasiga tayangan holda quyidagi innovatsion metodlardan foydalanib kelishmoqda:

**“Muammoli vaziyat yechimi” (Creative Problem Solving)** — bu usulni qo'llash uchun hikoyaning boshlanishi o'qib beriladi, qanday yakun topishi o'quvchilar, talabalar hukmiga havola qilinadi;

**“Quvnoq topishmoqlar” (Merry Riddles)** — o'quvchilarga topishmoqlar o'rgatish ingliz tilini o'rgatishda muhim ahamiyatga ega, ular o'zlariga notanish bo'lgan so'zlarni o'rganadilar va o'ylab topishmoq javobini topadilar;

**“Tezkor javob” (Quick answers)** — o'tilgan dars samaradorligini oshirishda yordam beradi;

**“Chigil yozdi” (Warm-up exercises)** — o'quvchilarni darsga qiziqtirish uchun sinfda har xil o'yinlardan foydalanish ;

**“Pantomima” (pantomime)** — bu usul juda qiyin mavzular tushuntirilishi kerak bo‘lgan darsda yoki yozma mashqlar bajarilib, talabalar charchagan paytda foydalanilsa bo‘ladi;

**“Hikoya zanjiri” (a chain story)** — usuli o‘quvchilarning og‘zaki nutqini o‘stirishda yordam beradi;

**“Rolli o‘yinlar” (Acting characters)** — bu usul darsning barcha tiplarida qo‘llanilishi mumkin. Hunarga o‘rgatish uchun “Interpreter”, “Translator”, “Writer”, “Poet” kabi kasbdagi kishilar darsda ishtirok etishib o‘quvchilar bilan suhbatlashishlari mumkin;

**“Allomalar yig‘ini” (Thinkers meeting)** — U.Shekspir, A.Navoiy, R.Burns kabi shoirlar va yozuvchilarni “taklif qilish” mumkin. Bunday paytda ular aytib ketgan hikmatli so‘zlardan darsda foydalanish yoshlarni komil inson bo‘lib tarbiyalanishiga yordam beradi;

**“Rasmlar so‘zlaganda” (When pictures speak)** — usuli ancha qulay bo‘lib, ingliz tilini o‘rgatishda, talaba, o‘quvchilarning og‘zaki nutqini rivojlantirishda yordam beradi, buning uchun mavzuga oid rasmlardan foydalanish lozim;

**Kviz kartochkalari (quiz cards)** — o‘quvchilarning soniga qarab kartochkalar tarqatiladi va hamma talabalar bir vaqtda darsda ishtirok etish imkonini beradi, bu esa vaqtni tejaydi .

### Xulosa

Xulosa qilib aytganda, axborot-kommunikatsiya texnologiyalari ingliz tilini o‘qitish samaradorligini oshirishda muhim ahamiyatga ega. Zamonaviy texnologiyalar yordamida tashkil etilgan darslar o‘quvchilarning tinglab tushunish, o‘qish, yozish va gapirish ko‘nikmalarini rivojlantiradi hamda ularning darsga bo‘lgan qiziqishini oshiradi. Shuningdek, multimedia vositalari, interaktiv metodlar va onlayn platformalardan foydalanish o‘quvchilarning mustaqil fikrlash va erkin muloqot qilish qobiliyatlarini shakllantiradi. Shu sababli, ingliz tilini o‘qitishda axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan samarali foydalanish zamonaviy ta’limning muhim vazifalaridan biri hisoblanadi.

### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1.Bekmuratova U.B. Ingliz tilini o‘qitishda innovatsion texnologiyalardan foydalanish. – Toshkent.-2012.B.12-18

2.Xatamova N.Q.,Mirzayeva M.N. Ingliz tili darslarida qo‘llaniladigan interfaol usullar. – Navoiy.-2006.-B.40

3.Hoshimov O‘., Yoqubov I. Ingliz tili o‘qitish metodikasi. – Toshkent.-Sharq.-2003.B.45-53

4.Xoldorova M., Fayziyeva N., Rixsiyeva F. Chet tilini o‘qitishda yordamchi vositalardan foydalanish. – Toshkent.-2005.B.31-37

5. Ikramova X.M. Chet tili darslarida axborot texnologiyalaridan foydalanish // *Oriental Renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences.* – 2021. – Volume 1, Issue 4. – B. 885–890.
6. Jalolov J.J. Chet til o‘qitish metodikasi. – Toshkent.O‘qituvchi, 1996. – B. 56–63.
- 7.Saydaliev S. Ingliz tilini o‘qitishda zamonaviy pedagogik texnologiyalar. – Toshkent.-2018. – B. 40–47.
- 8.Niyozov G‘.,Karimova D. Ta’lim jarayonida axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanish. – Samarqand.-2019. – B. 25–32.
9. Qosimov A. Interfaol metodlarning ta’lim samaradorligiga ta’siri. // *Pedagogik mahorat.* – 2020. – B. 66–71.
10. Yo‘ldoshev J., Usmonov S. Pedagogik texnologiya asoslari. – Toshkent: O‘qituvchi.-2004. – B. 78–84.